

3. Bo`g`inlarni o`qing va ikkinchi qatordan shu bo`g`in o`rnini toping.

Darsga yakun yasash:

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?
- Mashg`ulotda nimalarni eslab qoldingiz?
- Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o`zingiz mustaqil bajara oldingiz?

21-mavzu: [k] tovushi. Kk harfi

Dars maqsadi:

- [k] tovushining talaffuzi va Kk harfining bosma shakli bilan tanishadilar;
- [k] undosh tovush ekanligini bilib onladilar.
- so`zlardan [k] tovushining o`rnini aniqlashni o`rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so`zlar: [k] tovushi

Didaktik materiallar: ko`k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlli kartochkalar,

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O`quvchilardan bugungi kun sanasi so`raladi.

Diqqat mashqi: O`qituvchi ma`lum bir ketma - ketlikni hosil qilib qalamni partaga taqillatadi. Avval 2 ta, so`ng 3 ta, keyin 4 ta. O`quvchilar avval eshitadilar so`ng o`qituvchi qanday chalgan bo`lsa shunday qaytarib chaladilar.

- Bugun siz bilan “Diqqat” mashqini o`tkazamiz. Men qalamni taqillatim ma`lum bir ketma-ketlikni hosil qilaman siz esa diqqat bilan eshitasiz, keyin huddi mendek qilib qaytarib taqillatib berasiz.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O`qituvchi doskaga **ана** yoniga esa **a.a** deb yozadi. O`quvchilardan ana so`zidagi [n] tovushining o`rniga shunday tovush qo`yishni so`raydi. Yangi hosil bo`lgan so`z oila a`zolarimizdan biri bo`lishini aytadi.

- Doskada yozilgan ana so`zidagi n tovushini boshqa tovush bilan almashtirsangiz yangi so`z hosil bo`ladi. Bu so`z oila a`zolarimiz biri bo`ladi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- Qanday so`z hosil qila oldingiz?
- Aka so`zida n tovushini o`rniga qanday tovushni qo`yish kerak?

Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi

2.Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

O'qituvchi [k] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

K tovushini talaffuzida lablar biroz ochiq, harakatsiz, tishlar orasi bir oz ochiq, **K** tovushi unli "a", "o", "u", "i" tovushlari bilan talaffuz etilganda til uchi pastga tushgan bo'ladi va pastki kurak tishlarga bir oz yetmay turadi. **K** tovushi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi.

Darslikdan Kk harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi va muhokama qilinadi.

21-dars [k] tovushi. Kk harfi

[k] tovushi – undosh
Talaffuzida lablar biroz ochiq, harakatsiz, tishlar orasi bir oz ochiq, **K** tovushi unli "a", "o", "u", "i" tovushlari bilan talaffuz etilganda til uchi pastga tushgan bo'ladi va pastki kurak tishlarga bir oz yetmay turadi. **K** tovushi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi.

a	o	i	u	
k	ka	ko	ki	ku

Kitob, kalitda bittaman,
Kiyik so'zida ikkita.
Kaklik, kakkuda uchtaman,
Toping-chi, men o'zi kimman?

She'r nima haqida?

- Qaysi so'zlarda k harfi bir marta uchragan?
- Ikki marta k harfi uchragan so'zlarni ayting.
- Qaysi so'zda Kk harfi uch marta qo'llanilgan?

Ma-lik, Ka-mol – a-ka-u-ka. Ma-lik Ka-mol-dan kat-ta.
Kim a-ka? Ma-lik – a-ka. Kim u-ka? Ka-mol – u-ka.
Ka-mol-ni-ki. Ma-lik-ni-ki.

Nima?
Kit.

– Kim?
– Madina.

– ?
– ?

Kitob, kalitda bittaman,

Kiyik so'zida ikkita.

Kaklik, kakkuda uchtaman,

Toping-chi, men o'zi kimman?

She'r nima haqida?

• *Qaysi so'zlarda k harfi bir marta uchragan?*

• *Ikki marta k harfi uchragan so'zlarni ayting.*

• *Qaysi so'zda Kk harfi uch marta qo'llanilgan?*

O'qituvchi doskada o'quvchilarga bo'g'lnlarni qo'shib so'z hosil qilib o'qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

1.Darslikda berilgan bo'g'in va

so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

2.Darslikdagi gaplar o'qitiladi. Matndagi tushurib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib o'qib beriladi. Matnga sarlavha qo'yiladi.

3.Rasmga qarab savol bering.

Kit-nima?

Malika-kim?

Kaktus –nima?

*Kishilarga kim? O’simlik va hayvonlarga esa nima? deb savol beriladi. Siz ham shunday so’zlarga misol keltira olasizmi?
O‘quvchilar misollar keltiradi.*

Daftар bilan ishlsh: (10 daqiqa)

1. Kk harfini tegishli rangga bo‘yang. Nima uchun bu rangni tanlaganingizni izohlang.
2. Kapalak so‘zining chizmasida [k] tovushining o‘rnini aniqlang va tegishli kataknini bo‘yang.
3. Berilgan namunadan bosma Kk harfinining bosh va kichik ko‘rinishini avval nuqtalar ustidan so‘ng o‘zlari yozing.
4. So‘zlarni nuqtalar ustidan so‘ng mustaqil yozing.
5. So‘zlarning nomlarini ayting va ularni so‘z chizmasiga mos bo‘yang.

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg‘ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo‘ldi?

-qaysi topshiriqni bajarishga qiyndalingiz?

22-mavzu: [k] tovushi. Kk harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [k] tovushining talaffuzi va Kk harfinining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;

- so‘zlardan [k] tovushining o‘rnini aniqlashni o‘rganadilar;

- so‘zni bo‘g‘inga bo‘lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so‘zlar: Kim?, nima?, [k] tovushi ishtirokidagi so‘zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmi li kartochkalar , kesma harflar.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O‘quvchilardan bugungi kun sanasi so‘raladi.

Birgalikda kuylaymiz mashqi: O‘qituvchi o‘quvchilar bilan musiqiy notalarni kuylaydi do re mi fa sol lya si so‘raydi. Ularni bir necha bor turli ketma ketlikda kuylash mumkin.